

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARI VA KOMPRATIVISTIKA HODISASI**Xo‘jamberdiyeva Manzura**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya tillarni o‘qitish: o‘zbek tili 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14784275>

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy til asoschisi Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari xususidagi fikrlarimiz va komprativistika hodisasi, ta’rifi, bu hodisaning ilk marotaba “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida yoritib o‘tilganligi haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: “Muhokamat ul-lug‘atayn”, turkiy, sart (fors-tojik), lakuna, komprativistika, bo‘shliq, madaniy bo‘shliq, lakunar birlik, gender farq, tilshunoslik.

**ПРОИЗВЕДЕНИЕ «МУХОКАМАТ УЛ-ЛУГАТАЙН» И ФЕНОМЕН
КОМПРОТИВИЗМА**

Аннотация. В данной статье представлены взгляды основоположника литературного языка Алишера Навои на языкознание, наши мысли о произведении «Мухокамаат ул-лугатайн» и явлении компративистики, его определении, впервые это явление освещено в произведении «Мухокамаат ул-лугатайн». -лугатайн" з было проведено.

Ключевые слова: «Мухокамаат ул-лугатайн», турецкий язык, сарт (персотаджикский), лакуна, компративистика, разрыв, культурный разрыв, лакунарное единство, гендерное различие, лингвистика.

"MUHOKAMAT UL-LUGATAYN" AND THE PHENOMENON OF COMPRATIVISM

Abstract. In this article, the founder of literary language Alisher Navoi's views on linguistics, our thoughts on the work "Muhokamat ul-lughatayn" and the phenomenon of comprativistics, its definition, the first time this phenomenon was covered in the work "Muhokamat ul-lughatayn" z was conducted.

Key words: "Muhokamat ul-lughatayn", Turkish, sart (Perso-Tajik), lacuna, comprativistics, gap, cultural gap, lacunar unity, gender difference, linguistics.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bundan besh asr oldin tillarning o‘zaro chog‘ishtirma tadqiqiga asoslangan “Muhokamat-ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) monografiyasi bilan dunyo tilshunosligida mutlaqo yangi ilmiy yo‘nalish – komprativistikaga asos solgan edi. Alloma ushbu asari orqali chog‘ishtirma tilshunoslikning tadqiq yo‘llari, tahlil usullari, metodologik bazasini ishlab chiqdi. Hozirga qadar ham zamonaviy tilshunoslikda ushbu ilmiy manbaning o‘rni, tahlil va tadqiq usullari katta ahamiyat kasb etadi.

Lingvistika tarixida Alisher Navoiy boshlab bergan yangi ilmiy yo‘nalishga asoslangan komprativistik tadqiqotlar Yevropada XIX asrning birinchi yarmiga kelibgina yaratila boshladi va bu tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nomi bilan o‘rin egalladi. Hozirgi kunda bu yo‘nalish zamonaviy tilshunoslikning yirik sohalaridan biriga aylangan.

«Muhokamat ul-lug‘atayn» — «Ikki til muhokamasi» deb nomlangan bu asar 905 hijriy yilning jumodiyul avval oyi- 1499 melodiy yilning dekabr oyi oxirlarida chorshanba kuni yozib tugatilgan:

*Bu nomaki, yozdi qalamim tortib til,
Tarixin aning jumodiyul-avval bil.
Kunning raqamini chorshanba qilg‘il,
To‘qqiz yuz yildin o‘tub erdi besh yil.
(MAT, 20 tomlik, 16-tom, 40-bet)*

«Muhokamat ul-lug‘atayn» da turkiy-o‘zbek va fors-tojik tillarini qiyosiy o‘rganish vositasida turkiy-o‘zbek tilining Sharqda mashhur bo‘lgan arab va fors-tojik tillari darajasidagi mavqeidan so‘z yuritiladi hamda ulardan, xususan fors-tojik tilidan farq qiluvchi xususiyatlari turli xildagi ko‘pgina misollar, jumladan «yuz lafz» (yuzta so‘z)ni keltirib, talqin qilish bilan isbotlanadi. Bu ma‘no Alisher Navoiyning quyidagicha yozganlarida ham o‘z ifodasini topgan.

«Turkiy va sort lug‘ati kayfiyati va haqiqati sharhida bu risolani jam‘ qilib bitidim va anga «Muhokamat ul-lug‘atayn» ot qo‘ydum, to turk eli tili fasohatu diqqati va balog‘atu vus‘ati... zohir qildim. Va xayoling‘a mundoq kelurkim, turk ulusi fasihlariga ulug‘ haq sobit qildimki, o‘z alfoz va iboratlari haqiqati va o‘z til va lug‘atlari kayfiyatidin voqif bo‘ldilar». (MAT, 20 tomlik, 16-tom, 40-bet).

Hazrat Navoiy ilmiy tafakkurining gultojisi hisoblangan ushbu tadqiqot o‘zbek fani tarixida ham tengsiz maqomga ega. Ushbu asar bizgacha yetib kelgan ilmiy ishlar orasida o‘zbek tilida yaratilgan birinchi sof lingvistik ilmiy-tadqiqot hisoblanadi. Kezi kelganda aytilish kerakki, Nizomiddin Mir Alisher Navoiyga qadar turkiy tillar tadqiqiga bag‘ishlangan o‘nlab ilmiy asarlar yaratilgan. Biroq ular arab tilida yozilgan va ularning aksariyati o‘quv qo‘llanma xususiyatiga ega bo‘lgan.

Navoiy «Muhokamatu-l-lug‘atayn» («Ikki til muhokamasi») asari bilan o‘zbek lafzida tilshunoslik bo‘yicha ilmiy ish yaratish uslubini, yozma ilmiy bayon texnikasini yaratib berish bilan birga, uning ilmiy atamashunosligini ham ishlab chiqdi. Shu jihatlari bilan bu asar o‘zbek va jahon fani uchun g‘oyat qadrli fundamental tadqiqotdir.

Navoiy o‘z asarida komprativistikaning tayanch usullarini ixtiro etgan. Chunonchi, u tillarning qanday birliklari va qatlamlari solishtirilsa, asosli ilmiy natijalarga erishish mumkinligini ham ko‘rsatgan.

Ana shu maqsadda Navoiy o'zbek tilining so'z boyligini ko'rsatish orqali forsiyda muqobili bo'lmagan yuzta fe'lni keltiradi. Asarning Toshkent nashrida ushbu fe'llar to'qson to'qqizta. To'pqopi va Parij nusxalarida fe'llarning soni to'qson to'qqiz, Fotih va Budapesht nusxalarida yuzta. Ushbu ikki nusxada boshqa qo'lyozmada tushib qolgan yuzinchi fe'l ham bor.

U "chimdilamoq" fe'li bo'lib, ketma-ketlikda "qichig'lamaq" so'zidan keyin keladi. Asar nusxasini ko'chirayotgan kotib aynan shu so'zni tasodifan tushirib qoldirgan. Toshkent nashrida ushbu fe'l uchramasligining sababi ham shunda, nashr uchun Parij qo'lyozmasi asos bo'lgan, degan xulosaga keladi turkolog Q.Sodiqov.

Nusxalarda nafaqat bunday holatlar, balki ba'zi o'rinlarda jumalarning tuzilishida ham farqli jihatlar bor. Masalan, To'pqopi va Parij qo'lyozmalaridagi ayrim jumlar Fotih qo'lyozmasida tahrir qilingan yoki avvalgi ikki qo'lyozmada uchramaydigan jumlar Fotih qo'lyozmasida to'ldirilgan. Bir-ikkitasini ko'chirish chog'ida tushirib qoldirilgan, deyish mumkindir, lekin orada muhim ma'lumotlar ham kiritilgan bo'lib, ular til va uslub jihatidan Navoiyning jumalari, ularni asarga muallifdan boshqa kishi kiritishi imkonsizdir.

Shuni eslatish joizki, Alisher Navoiy turkiy tilning fazilatlarini haqida so'z yuritganda o'sha davrda mashhur bo'lgan arab, fors-tojik va hind tillarini kamsitmaydi, aksincha ularning har biriga xos bo'lgan xususiyatlarni ham ehtirom bilan bayon etadi.

Bundan kuzatilgan maqsad turkiy tilning fasohati va balog'ati haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni bayon etish bilan bir qatorda «turk nozimlari (shoirlari) o'z alfozlari bilan she'rg'a mashg'ulluq qilg'aylar va ko'ngul g'unchasi dog'idinki, pechlar chirmanibdur, bahor nasimidek anfos bila guldek ochilg'aylar». (MAT, 20 tomlik, 16-tom, 38-bet).

Demak, Alisher Navoiy turkiy tilning fasohati va lug'aviy boyligini dalillar bilan isbotlash vositasida turkiy tildagi adabiyot-she'riyatning yanada ravnaq topishi lozimligini ham nazarda tutgan. «Muhokamat ul-lug'atayn»da faqat qiyosiy tilshunoslik masalalaridan so'z yuritilgan emas, balki unda til tarixi, o'zbek adabiyoti tarixi, she'riy janr va badiiy san'atlar, fors-tojik adabiyoti namoyandalari asarlari va o'zi (Alisher Navoiy)ning ijodiga doir qimmatbaho mulohazalar ham mavjud.

Alisher Navoiyning qayd qilishicha, turkiy til va turkiy tildagi adabiyot tarixi o'zaro chambarchas bog'lidir. Shuning uchun asarda Hulokuxon, Amir Temur, Shohrux mirzo hamda Sulton Husayn Boyqaro zamonlarida turkiy tilning rivojlangani tufayli turkiy she'riyatning mavlono Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Amiriy, Yaqiniy, Gadoyi, mavlono Lutfiy, Husayniy va o'zi (Alisher Navoiy) kabi zabardast siymolari maydonga kelganlarini alohida qoniqish bilan uqtirib o'tadi. Shuning bilan birga bu jarayonning Sulton Husayn Boyqaro-Husayniy tomonidan qo'llab-quvatlashi tufayli yanada rivojlangani ta'kidlanadi.

«Muhokamat ul-lugʻatayn»da sheʻriy janr (tuyuq), badiiy sanʼatlar (iyhom, tajnis, tarseʻ) haqida turkiy sheʻriyatdagi oʻziga xos xususiyatlari jihatidan maʼlumot beriladi. Fikrning isboti uchun misolga murojaat qilaylik: «Sheʻrda barcha tabʼ ahli qoshida ravshan va majmuʻi fusaho ollida¹ mubarhandurki, tajnis va iyhom bagʻoyat kulliydir. Va bu farxunda iborot va xujasta alfoz va ishorotda forsiydin koʻprak tajnisomez lafz va iyhomangez nukta borki, nazmga mujibi zebu ziynat va boisi takallufu sanʼatdur. Masalan: ot lafziki, bir maʼnosi alamdur², yana bir maʼnisi markabdur³ va yana bir maʼnisi amrdurkim, toshni yo oʻqni ot, deb buyurgʻaylar. Bu tajnisda mundoq deyilibdurkim,

Bayt:

Chun pariya hurdur oting, begim,

Surʼat ichra dev erur oting, begim.

Har xadangekim, ulus andin qochar,

Notavon jonim sari oting, begim.»

(MAT, 20 tomlik, 16-tom, 17-bet).

Eslatilganidek, «Muhokamat ul-lugʻatayn» da fors-tojik adabiyotining Xoqoniy, Anvari, Firdavsiy, Nizomiy, Saʼdiy, Xusrav Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Xojui Kirmoniy, Ashraf, Abdurahmon Jomiy kabi mashhur namoyandalarning asarlari, ularning turli janrlar sohasidagi xizmatlari muhtasar tarzda boʻlsa-da, adabiyotshunos sifatida baholangan va xulosaviy fikrlar bayon etilgan. Jumladan, forsiy tilda qasida janrining mukammal namunalarini yaratgan Xoqoniy, Anvari, Zahir, Salmonlar; masnaviy-doston sohasida «ustozi fan Firdavsiy va nodiri zamon Shayx Nizomiy»(16-tom, 35-bet); gʻazal janri sohasida muhtareʼ Shayx Saʼdiy va Hofiz Sheroziylar ekanliklari haqidagi xulosaviy fikrlar hozirgi adabiyotshunoslar tomonidan faqat eʼtirof etilib qolmasdan, balki ular ilmiy jihatdan ham isbotlangan.

Bundan tashqari Alisher Navoiy arab sheʻriyatining zabardast namoyandalari haqida ham muhtasar, ammo hozirgi kunda arab adabiyotshunoslari tomonidan maʼqullangan mulohazalarni bayon etadi. Jumladan: «To mulk arab xulafosi va salotinida erdi, falak ul vaqtda nazm dabiriga arab tili bila jilva berdi, andoqki, Hasson Sobitdek va Laxitdek malik ul-kalom suxanguzorlar va maʼniofarin fasohatshiorlar paydo boʻldilar va oʻz tillari bila nazm adosining dodini berdilar». (MAT, 20 tomlik, 16-tom, 35-bet).

Alisher Navoiyning arab shoirlari haqidagi muhtasar, ammo haqqoniy mulohazalari XX asr arab adabiyotshunosi Hanna al-Foxuriyning «Arab adabiyoti tarixi» kitobida qoʻllab-quvvatlangan. Masalan, Hanna al-Foxuriy VII asrda faoliyat koʻrsatgan Hasson ibn Sobit (vaf.-54 hijriy-674 melodiy yil) ijodining ahamiyati haqida soʻz yuritib, uni islom davri arab adabiyotida islomiy va siyosiy sheʻriyatning asoschisi ekanligini alohida uqtiradi.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy Hasson ibn Sobitni malik ul-kalom deb ta'riflagan bo'lsa, Hanna al-Foxuriy uni islomiy va siyosiy she'riyatning asoschisi tarzida tavsiflaydi. Demak, Alisher Navoiy XV asrdayoq bu shoirning mavqeini o'sha davr adabiyotshunosligi mezoni asosida «malik ul-kalom» iborasi bilan to'g'ri aniqlagan. Keltirilgan mulohazalar shundan guvohlik beradiki, Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»da o'zini faqat tilshunos olim sifatida emas, balki arab, fors va turkiy adabiyot tarixining ham ulkan bilimdoni – olimi ekanini namoyish etgan.

«Muhokamat ul-lug'atayn»ning adabiyotshunoslik sohasidagi ahamiyati yuqorida qayd qilingan fazilatlar bilan cheklanmaydi. Asarda Alisher Navoiyning turkiy va forsiy tillarda yaratgan asarlari, ularning yozilish sabab va tarixlari, ijodiy hamkorliklari haqida ma'lumotlar uchraydiki, ular ulkan shoirning ijodiy tarjimai holini yaratishda qimmatbaho material bo'lib xizmat qiladi. Bu jihatdan «Xazoyin ul-maoni», «Tuhfat ul-afkor», «Xamsa» va boshqalar haqida yozganlari ardoqlidir.

Bundan tashqari «Muhokamat ul-lug'atayn»ning adabiy ahamiyati yana shu bilan ham belgilanadiki, unda o'sha davr nasri uchun xos uslub – saj' san'ati (nasrda ohangdorlik va qofiya, radif unsurlari) mahorat bilan ishlatilgan hamda turli xil she'riy nav'lardan misol keltirish bilan ziynatlangan.

Misollar:

Saj' san'ati: «Takallum ahli xirmanining xo'shachini va so'z durri samini maxzanining amini va nazm gulistonining andalebi nag' masaroyi, ya'ni Alisher al-mutaxallis bin Navoyi ... mundoq arz qilurkim...» (MAT, 20 tomlik, 16-tom, 8-bet).

Yana: «Umid ulkim, bu faqirni xayr duosi bila yod qilg'aylar va ruhumni aning bila shod qilg'aylar».
(MAT, 20 tomlik, 16-tom, 40-bet).

She'riy parchalar:

Ruboiy: *Ey so'z bila qilg'on ofarinish og'oz,*
Insonni aroda aylag'on mahrami roz.

Chun «kun fa yakun» safhasiga bo'ldi tiroz,

Qilg'on oni nutq ila boridin mumtoz.

(MAT, 20 tomlik, 16-tom, 7-bet)

«Muhokamatu-l-lug'atayn»ning to'rtta qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan bo'lib, uning birinchi nusxasi Istanbuldagi To'pqopi saroyi muzeyi Revan kutubxonasida saqlanayotgan Navoiy kulliyotidan o'rin olgan. Taxminlarga qaraganda, u mavjud nusxalarning eng eskisidir.

Asarning yana bir nusxasi Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo'limida saqlanmoqda va u Navoiy kulliyotiga kirgan. 1526-1527 yillarda ko'chirilgan Parij nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada va asarning to'rtinchi qo'lyozmasi Budapeshtda saqlanmoqda.

Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarining yangi nashri ana shu nusxalarni o‘zaro qiyoslash natijasida yaratildi.

“Muhokamatu-l-lug‘atayn”ning qo‘lyozmalari orasida To‘pqopi va Parij nusxalari matniyl jihatdan bir-biriga juda yaqin: To‘pqopida qaysi joylari tushib qolgan bo‘lsa, Parij qo‘lyozmasida ham aytarli shunday holat kuzatiladi. Asarning Fotih kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmasi boshqa nusxalardan birmuncha farq qiladi. Muhimi shundaki, To‘pqopi va Parij qo‘lyozmalarida uchramaydigan so‘z va jumlarlar ushbu nusxada to‘ldirilgan. Tekstologik jihatdan bu nusxaning o‘ziga yarasha afzalligi ham bor.

Masalan, To‘pqopi qo‘lyozmasida: “Forsiygo‘y turk beglar-u mirzodalar “bo‘xsamaq”ni forsiy til bila tilasalar-ki, ado qilg‘aylar!”, yoki ushbu gap Fotih qo‘lyozmasida: “Forsiygo‘y turk beglar-u mirzodalar “bo‘xsamaq”ni forsiy til bila tilasalar-ki, ado qilg‘aylar, ayo ne nav’ qilg‘aylar”, deb berilgan. Navoiy asarlari tilida singarmonizm (tovushlar uyg‘unligi) “temir qonun” sifatida amal qilinganini ko‘rishimiz mumkin. Bu narsa tovushlar tizimini anglashga ham imkon beradi. Masalan, muallif keltirgan misollarda “yo‘g‘on” o‘zak-negizli so‘zlarga masdar ko‘rsatkichining -maq varianti qo‘shiladi: “qurug‘samaq”, “aldamaq”, “qistamaq”, “yalinmaq” singari; “ingichka” talaffuzli so‘zlarga esa -māk varianti qo‘shiladi: “igirmak”, “indamak”, “surkanmak”, “o‘rtanmak” singari. Demak, Navoiy tilida orqa qator, “yo‘g‘on” a bilan old qator, “ingichka” ä ning har ikkovi mustaqil fonemalar sifatida ishlatilgan.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn» ilmiy asari turkiy tilshunoslikning nodir yodgorligi bo‘lib, unda turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari, uning buyuk ahamiyatga molik badiiy yodgorliklarni yaratishga qodirligi masalasi ilmiy asosda yoritilgan. Shuning bilan birga asarning mavzu doirasi keng bo‘lib, unda umuman adabiyotshunoslikning turli xildagi muhim muammolari tilga olingan va o‘sha davrdagi nasrning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

REFERENCES

1. А. Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти. Тошкент, 1967.
2. “Navoiy asarlari lug‘ati” (1972)
3. “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” (1993-1995)
4. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006-2008)
5. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (2000)
6. Xayrulla Ismatullayev “”Muhokamat ul-lug‘atayn ”ning chet ellarda o‘rganilishi” “O‘zbek tili va adabiyoti ” jurnali 1988,4-nashr,54
7. Alisher Navoiy Asarlar.O‘n besh tomlik .14-tom.Toshkent,1967,228-bet